

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEXNIKAVIY
CHIZMACHILIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEXNIKAVIY CHIZMACHILIK FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Texnikaviy chizmachilik fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Texnikaviy chizmachilik

1. Texnikaviy chizmachilik bo‘yicha umumiy tushunchalar;
2. Loyihalash hujjatlarini tuzish usullari, nomlarini o‘qish tartibi, materiallar va chizmachilik ish qurollari, chizmachilik asboblari, chizmalarga o‘lcham qo‘yish;
3. Chizma geometriya elementlari va proyeksion chizmachilik, detalning ikki va uch tekislikdagi proyeksiyalarini yasash, detalning uchta tekislikdagi proyeksiyasini aniqlash, detallarning aksonometriyasini chizish;
4. Tishli uzatmalar va ularni chizmalarda tasvirlash, Slindrik tishli, Konusimon tishli, Cheviryakli g‘ildiraklar;
5. Jismlarni tekisliklar bilan kesish va bu jismlar sirtlarini yoyish, Geometrik jismlar kesimlari to‘g‘risida tushuncha, Prizmaning, Slindr, Pirameda tekislik bilan kesilishi, Sferaviy sirtini yoyish.
6. Mashinasozlik chizmachiligining elementlari, Mashinasozlik chizmalarining asosiy yozuvlari, Mashinasozlikda ishlatiladigan birikmalar haqida umumiy ma’lumotlar, Rezbali buyumlar, Boltli birikmani chizish tartibi, Shpilkali birikmani chizish tartibi, Vintlar va ularni chizish tartibi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Texnik chizmachilik bo'yicha umumiy tushunchalar	Texnik chizmachilik bo'yicha umumiy bo'yicha umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	2 ta
2	Texnik loyihalash hujjatlarini tuzish usullari, nomlarini o'qish tartibi, materiallar va chizmachilik ish qurollari, chizmachilik asboblari, chizmalarga o'lcham qo'yish	Texnik loyihalash hujjatlarini tuzish usullari, nomlarini o'qish tartibi, materiallar va chizmachilik ish qurollari, chizmachilik asboblari, chizmalarga o'lcham qo'yish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5 ta
3	Chizma geometriya elementlari va proyeksion chizmachilik, detalning ikki va uch tekislikdagi proyeksiyalarini yasash, detalning uchta tekislikdagi proyeksiyasini aniqlash, detallarning aksonometriyasini chizish haqida umumiy tushunchalar	Chizma geometriya elementlari va proyeksion chizmachilik, detalning ikki va uch o'lchamli tekislikdagi proyeksiyalarini yasash, detalning uchta tekislikdagi proyeksiyasini aniqlash, detallarning aksonometriyasi haqida nazariy va amaliy bilimga ega bo'ladi.	5 ta
4	Tishli uzatmalar va ularni chizmalarda tasvirlash, slindrik tishli, konusimon tishli, cheviryakli g'ildiraklar	Tishli uzatmalar va ularni chizmalarda tasvirlash, slindrik tishli, konusimon tishli, cheviryakli g'ildiraklar haqida nazariy va amaliy bilimga ega bo'ladi	8 ta
5	Jismlarni tekisliklar bilan kesish va bu jismlar sirtlarini yoyish, Geometrik jismlar kesimlari to'g'risida tushuncha, Prizmaning, Slindr, Pirameda tekislik bilan kesilishi, Sferaviy sirtini yoyish	Jismlarni tekisliklar bilan kesish va bu jismlar sirtlarini yoyish, Geometrik jismlar kesimlari to'g'risida tushuncha, Prizmaning, Slindr, Pirameda tekislik bilan kesilishi, Sferaviy sirtini yoyish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5 ta
6	Mashinasozlik chizmachiligining elementlari, Mashinasozlik chizmalarining asosiy yozuvlari, Mashinasozlikda ishlatiladigan birikmalar haqida umumiy	Mashinasozlik chizmachiligining elementlari, mashinasozlik chizmalarining asosiy yozuvlari, mashinasozlikda ishlatiladigan birikmalar haqida umumiy	15 ta

ma'lumotlar, Rezbali buyumlar, Boltli birikmani chizish tartibi, Shpilkali birikmani chizish tartibi, Vintlar va ularni chizish tartibi	ma'lumotlar, rezbali buyumlar, boltli birikmani chizish tartibi, shpilkali birikmani chizish tartibi, vintlar va ularni chizish tartibi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.
---	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Y.A. Ibragimov Texnik chizmachilik va elektron sxemalarni o'qish. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Ilm ziyo», 2016. – 240 b.

2. N .X. Gulamova Chizmachilik(Mashinasozlik chizmachiligi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. -T.: “Fan va texnologiya”, 2017.

3. Y.A. Ibragimov. Chizmachilik kursidan kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Uslubiy ko'rsatma. Farg'ona, 2010.

4. Murodova M., Badiev M. Texnik chizmachilik. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdon, 2022.

5. Norqulov H., Madumarov K.X. Chizma geometriya va texnik chizmachilik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2016.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.